



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

3. Л. Е. Чернова and Д. Д. Войцицкий, «Концептуальные основы архитектурного проектирования технопарков», Вісник Придніпровської державної академії будівництва та архітектури, 2014. [Online]. Available: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptualnye-osnovy-arhitekturnogo-proektirovaniya-tehnoparkov>. Accessed: Sep. 4, 2025. КиберЛенинкаirbis-nbu.gov.ua
4. GORPROJECT, “Technopark in Skolkovo.” [Online]. Available: <https://gorproject.ru/en/projects/technopark-skolkovo/>. Accessed: Sep. 4, 2025. gorproject.ru
5. Technopark (India), “Beyond the Desk: How Technopark, the Top IT Park in India, Redefines the Workplace.” [Online]. Available: <https://technopark.in/beyond-the-desk-how-technopark-the-top-it-park-in-india-redefines-the-workplace>. Accessed: Sep. 4, 2025. Технопарк
6. VietEditors, “TechnoPark Tower Achieved LEED Platinum Certification for Green Environment,” Nov. 1, 2023. [Online]. Available: <https://vieteditors.com/post/technopark-tower-achieved-leed-platinum-certification-for-green-environment-9>. Accessed: Sep. 4, 2025. vieteditors.com
7. UzDaily, “A Special Industrial Zone Called ‘Nurabad Technopark’ Is Being Established in Samarkand Region.” [Online]. Available: <https://www.uzdaily.uz/en/a-special-industrial-zone-called-nurabad-technopark-is-being-established-in-samarkand-region/>. Accessed: Sep. 4, 2025.

**SAMARQAND SHAHRIDAGI MAYDONLARNING URBANISTIK
TAVSIFI, ULARNING FUNKSIONAL TOIFALARI VA BUGUNGI
KUNDAGI RIVOJLANISH HOLATI**

Ilmiy rahbar: arxitektura fanlari nomzodi, texnika fanlari doktori
Professor, Rahimov K.D

Mustaqil izlanuvchi: Islamova D.G

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti.
dilnozaislamova25@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Samarqand shahrining tarixiy maydonlari haqida umumiy tasavvur beriladi hamda ularning bugungi kundagi holati tahlil qilinadi. Maydonlarning me'moriy yechimlari, tarixiy merosdagi o'рни va zamonaviy shahar hayotidagi funksional ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Samarqand tumanlarining funksional zonalarga ajratilishi, ko'chalar bilan hududiy bog'liqligi, zamonaviy arxitektura bilan kompozitsion uyg'unlik echimi ko'rib chiqilgan.

Аннотация

В статье дан общий обзор исторических площадей Самарканда и проанализировано их современное состояние. Освещены архитектурные решения площадей, их место в историческом наследии и функциональное значение в современной городской жизни. Также рассматривается зонирование районов Самарканда, их территориальная связь с улицами и решение композиционной гармонии с современной архитектурой.

Abstract

This article provides a general overview of the historical squares of Samarkand and analyzes their current state. The architectural solutions of the squares, their place in the historical heritage and their functional significance in modern city life are highlighted. Also, the division of Samarkand districts into functional zones, their territorial connection with streets, and the solution of compositional harmony with modern architecture are considered.

Kalit so'zlar

Arxitektura, shaharsozlik, maydon, madrasa, markaziy maydon, zamonaviy shaharsozlik, funksional markaz, tarixiy shaharlar, kompozitsion uyg'unlik, ma'muriy binolar, jamoat binolari, ko'cha.

Ключевые слова

Архитектура, градостроительство, площадь, медресе, центральная площадь, современное градостроительство, функциональный центр, исторические города, композиционная гармония, административные здания, общественные здания, улица.

Keywords

Architecture, urban planning, square, madrasah, central square, modern urban planning, functional center, historical cities, compositional harmony, administrative buildings, public buildings, street.

Kirish

Samarqand Markaziy Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, uning urbanistik tuzilmasida maydonlar muhim ijtimoiy va estetik ahamiyatga ega. Shahar hududida joylashgan maydonlar asrlar davomida turli davrlardagi arxitektura, madaniyat va jamiyat hayotini o'zida mujassam etib kelgan. Bugungi kunda esa ularning funksiyasi yanada kengayib, zamonaviy shaharlik hayotining markaziy komponentlaridan biriga aylangan. Samarqanddagi maydonlar shahar tuzilmasining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Asosiy qism

Ular odatda tarixiy yodgorliklar, muhim ijtimoiy binolar masalan, masjidlar, madrasa, hokimiyat binolari yoki transport tugunlariga yaqin joylashgan bo'ladi. Bunday joylashuv maydonlarga nafaqat arxitektura, balki shahar logistikasida ham markaziy rol ni beradi. Maydonlarning dizayni ko'pincha atrofidagi binolarning me'moriy uslubiga uyg'unlashtirilgan bo'lib, bu shahar landshaftida estetik yaxlitlikni ta'minlaydi. Registon maydoni - buning eng yorqin namunasi bo'lib, uchta madrasa bilan kompozitsion uyg'unlikda barpo etilgan.

Maydonlar shaharsozlikning tarkibiy qismiga bo'lib, shaharning asosiy funktsional markazi maydon va uning oldida bozorlar joylashgan. U nafaqat turli xil savdo yoki xizmat jarayonlarini amalga oshirgan, balki ba'zi hunarmandlar o'z mahsulotlarini ishlab chiqargan. Masalan, temirchilar bolta ishlab chiqargan va bozorda sotgan.

Materiallar va usullar. Qadimiy Samarqand shahrining rasmiy markazi Registon maydoni bo'lib, bu yerda uchta madrasa qad ko'targan: Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalari. Registon bu qadimiy ilm, ta'lim muassasalari joylashgan joy bo'lib, sharqdagi shahar qurilishi san'atining eng ko'zga ko'rinarli namunalaridan biri hisoblanadi. 2001-yilda bu uch madrasa UNESCOning butun dunyo yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. Samarqandning barcha hududlarini funktsional turlari va maqsadi, hozirgi holatiga ko'ra tasniflash amalga oshirildi. Shundan kelib chiqib, har bir tipologik guruhdagi maydonlar muhofaza qilish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangan.

Funksional toifalari. Samarqand maydonlarini bir nechta funksional guruhlarga ajratish mumkin:

-Tarixiy-madaniy maydonlar. Misollar: Registon maydoni, Amir Temur xiyoboni, Hazrati Xizr maydoni. **Funksiyasi:** Sayyohlik, madaniy tadbirlar, tarixiy obidalar markazi.

- Ma'muriy va rasmiy maydonlar. Misollar: Shahar hokimiyati oldidagi markaziy maydon, davlat idoralari atrofi. **Funksiyasi:** Bayramlar, rasmiy marosimlar, mitinglar.

- Ijtimoiy va savdo maydonlari. Misollar: Siyob bozori oldidagi maydon, markaziy savdo ko'chalaridagi ochiq joylar. **Funksiyasi:** Iqtisodiy faoliyat, savdo-sotiq, xizmat ko'rsatish.

- Rekreatsion va yashil maydonlar. Misollar: Bog'lar, xiyobonlar, favvoralar bilan jihozlangan ochiq maydonlar. **Funksiyasi:** Dam olish, sport, ko'ngilochar faoliyat.

O'rta Osiyo shaharlarida XIV-XVI-asrlarda savdo-sotiq qilinadigan gavjum joylardagi maydonlar Registon. Chorsu shaharsozlikning noyob namunasi sifatida diqqatga sazovordir. Maydonlar ko'chalar bilan bog'liq bo'lib, asosiy kirish ko'chasining o'qi markaziy maydonning o'rtasidagi binoga, haykalga qaratilgan bo'lib, shu yerda tugagan. Boshqa ko'chalarning bir tomoni maydonga tegib o'tadi.

Ko'chalar markaziy maydon bilan bog'langanda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1. Maydon bilan ko'chalarni bog'lashda, ko'chalarni loyihalash tizimi hisobga olinadi.
2. Maydonga chiqadigan ko'chalar soni 3-5 tadan oshmasin;
3. Maydonga chiqqan ko'chalarning jami eni, maydon perimetrining yarmisidan kam bo'lishi kerak.
4. Maydondan o'tib ketadigan ko'chalar maydon chetiga tegib o'tadi va undan ko'rinib turadi.
5. Ko'chalar maydondan o'tganda, uni bo'lmasligi kerak.

6. Markaziy kirish ko'chasi o'qi, maydondagi asosiy bino, haykal, monument o'qiga to'g'ri kelishi kerak.

7. Ko'chalar, maydondan o'tganda, uning transportlar yuradigan qismi aniq ko'rsatiladi.

Maydonlar shakli joyning relyefiga, quriladigan obyektlarning shakliga va ko'chalar bilan bog'lanishiga qarab har-xil bo'lishi mumkin. Maydonning eni uzunligiga nisbatan 1:1, 1:2, 1:3 bo'lib, ulardan eng yaxshisi 1:1,6 hisoblanadi.

Maydonning hamma tomonidan binolar, inshootlar qurilgan bo'lsa yopiq, agar bir tomoni ko'l, hovuz, landshaftli joylarga qaratilgan bo'lsa, ochiq maydon deyiladi. Markaziy maydonga shu joyning talabiga javob beradigan inshootlar-klub, ma'muriy bino, savdo markazi, oshxona, choyxona kabi binolar quriladi.

Markaziy maydonga inshootlar joylashtirilganda, uning me'moriy kompozitsiyasiga ahamiyat beriladi. Maydonga joylashtirilgan binolar, inshootlar va boshqa elementlar bir-biri bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldirib, o'ziga xos me'moriy ansamblni tashkil qiladi. Markaziy maydonni tashkil qilishda me'moriy kompozitsiya usullaridan to'liq foydalaniladi.

Natijalar. Shaharlarning markaziy maydoni ularning visit kartochkalari bo'lib, shaharning eng asosiy joylari hisoblanadi. Shaharsozlik nuqtai nazaridan qaraganda, bu shaharning o'zagi sanaladi. Ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda, mahalliy aholi singari ko'p sonli odamlar va sayyohlarni o'ziga tortadi. Bu yerda albatta muhim tadbirlar va bayramlar o'tadi. Shahar maydoni shahar muhitini loyihalashda alohida e'tibor qaratiladigan muhim obyekt bo'lishi kerak. Eng muhimi asosiy binolar uchun tabiiy joy, ommaviy yig'inlar, tantanalar va tadbirlar o'tkaziladigan joy bo'lishi kerak. Maydonlar shakllanishiga qarab bir necha turlarga bo'linadi.

Keng maydon. Maydon ustida ko'tarilgan bino uni ifodalovchi joyga mos o'lchamlarga ega bo'lishi kerak. Bunda, maydon binoga hukmronlik qiladi, uning uzunligi binoning balandligidan ancha katta bo'ladi.

Yadroviy maydon. Bo'shliq markaz atrofida hosil bo'ladi.

Guruhlangan maydon. Fazoviy birliklar kattaroq kompozitsiyalarga birlashtiriladi.[3]

Maydonlar ularning maqsadlariga qarab bir necha turlarga bo'linadi.

Asosiy maydonlar. Bu yerda shahardagi festivallar va odamlar uchrashadi va dam oladi. Transport va piyodalar oqimi yuqori bo'ladi. Qoidaga ko'ra bunday maydonlar asosiy ko'chalarga tutashgan yoki ularning chorrasida joylashgan bo'ladi. Shaharning bosh maydonida va uning atrofida shahar ahamiyatiga ega bo'lgan jamoat va tadbirkorlik infratuzilmasi obyektlari-madaniyat va dam olish uylari, konsert zallari, muzeylar va boshqalar joylashgan bo'ladi. Bosh maydonning perimetri, qoida tariqasida, jamoat va tadbirkorlik infratuzilmasi obyektini hamda bosh shahar va tuman ahamiyatiga molik ikkinchi darajali ko'chalarni tashkil qiladi. Maydonda transport va piyodalar oqimining intensivligi yuqori bo'ladi va avtoturargoh odatda tashkillashtirilmaydi, chunki bu piyodalar va transport vositalarining harakatiga to'sqinlik qiladi.

Transport maydoni – yondashgan ko'chalarga transport oqimlari taqsimlanadi. Transport maydonida avtoturargoh va piyodalar oqimining intensivligi yuqori bo'ladi. Transport hududida savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari o'rnatilgan xonalar, pavilyonlar, kioskalar mavjud bo'ladi. Maydon chegaralarida avtoturargohlar va jamoat transporti bekatlari mavjud bo'ladi. Transport maydonlari qoida tariqasida, asosiy transport uzellari temir yo'l yoki avtovokzallarga tutash bo'lib, qo'shni shaharlar bilan aloqani ta'minlaydi. Ularning chegaralarida avtoturargohlar va jamoat transporti bekatlari mavjud. Ushbu maydonlarning o'lchamlari transportning intensivligi va maydonni kesib o'tadigan ko'chalar soni bilan belgilanadi [4]. Maydonda harakatlanishni tashkil qilish estetik sabablarga ko'ra yo'qotilmasligi kerak.

Vokzal oldi maydoni-tashqi transport inshootlariga, avtomobil to'xtash joylariga, yo'lovchi transportlari bekatlariga kirish hamda transport va piyodalar oqimlarini tashkil etish va ajratish uchun. Vokzal oldi maydoni temir yo'l va shaharlararo transport o'rtasida yo'lovchilarni xavfsiz, tez va ayni paytda

qulay tashish uchun foydalaniladi. Shuning uchun bu stansiya binosi yagona transport tizimidir. Temir yo'l aloqasi shaharlararo shahar atrofiga bo'linadi. Shahar aloqasida jamoat transporti va individual transport hisobga olinishi kerak. Vokzal maydoni shaharning asosiy kirish maydoni vazifasini bajaradi. Mintaqaning arxitektura-rejalashtirish yechimi odamlarni tashqi transportdan shahar transportiga ko'chirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ikki zonaga bo'linadi: stansiya zonasi va shaharga qaragan va arxitektura fazoviy vazifani bajaradigan shahar maydonidir. Maydonning me'moriy rejalashtirish yechimi odamlarni tashqi transportdan shahar transportiga o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

300-400 ming aholi istiqomat qiladigan shaharlarda avtobuslardan tashqari, vokzal maydoniga faqat vokzal hududigacha boradigan tramvay xizmat ko'rsatadi. Aholisi 300-400 ming aholi istiqomat qiladigan shaharlarda avtobuslardan tashqari trolleybuslar ham ishlatiladi. Shu bilan birga, vokzal oldi maydonlari odatda kvadrat yoki to'rtburchaklar shaklida bo'ladi. Vokzal oldi maydonlari temir yo'l, dengiz, daryo va avtomobil stansiyalarida, aeroportlarda tashkil etiladi. Vokzal oldi maydonlari shaharga kirish uchun o'ziga xos "darvoza" bo'lib xizmat qiladi. Ular transport vositalari va piyodalar uchun ularni kesib o'tmasdan murakkab o'tish joylarini, shuningdek, avtomobillar, trolleybuslar, tramvaylar va avtobuslar uchun to'xtash joylarini chegaralashni talab qiladi.

Maydonlarning taxminiy o'lchamlari katta shaharlar uchun 2-4 gektar, o'rtacha shaharlarlar 1-2 gektar; kichik shaharcha uchun 0.75-1 ga teng.

Bozor maydoni. Bozor maydoni bozor otkaziladigan savdo uchun mo'ljallangan maydondir. Bu dunyodagi ko'plab shaharlarning muhim xususiyatidir. Bozor maydoni-bu ochiq maydon bo'lib, u yerda savdo do'konlari an'anaviy ravishda savdo qilish uchun o'rnatiladi, odatda haftaning ma'lum bir kuni, bozor kuni deb nomlanadi. Bozor maydoni kvadrat yoki to'rtburchakdan yoki yoki ba'zan faqat asosiy ko'chaning kengaytmasidan iborat. U odatda shahar markazida joylashgan bo'lib, shahar hokimiyati, muhim do'konlar va mehmonxonalar, pochta bo'limi, kichik do'konlar va savdo binolari kabi yirik binolar bilan o'ralgan bo'ladi [3].

Teatr maydoni. Yashil teatr maydonlari tomoshabinlarni qabul qilish va evakuatsiya qilish uchun mo'ljallangan arxitektura jihatdan tashkil etilgan maydon; dam olish, funksional aloqalar uchun bayramona, qulay muhit yaratish uchun mo'ljallangan joylar.

Stadion oldi maydonlar. Stadion oldi maydonlari tashrif buyuruvchilarni tarqatish uchun yetarlicha katta maydonga ega stadionlar oldida joylashtiriladi.

Ko'p funksiyali maydon-maydonning shahar tarxida o'rni va uning bajaradigan ishi bosh tarxda aniqlanadi. Maydonni loyihalashda transport va piyodalar harakatini tashkil etish sxemasini tuzish lozim.

Ko'cha, maydon-shaharning ko'cha-yo'l tarmog'ining qizil chiziqlari bilan chegaralangan umumiy foydalanish hududlari [4].

Maydonning yana bir turi-shahar ichidagi transport uchun tushirish maydoni. Eski shaharlarda turli burchaklarda kesishgan ko'chalar ko'pincha chorrahalarda tezyurar avtotransport uchun noqulayliklar yaratadi va bu chorrahalarda dinamik tip deb ataladigan maxsus turdagi maydonni yaratishni talab qiladi.

Zamonaviy shahardagi uchinchi turdagi maydonlar bolalar to'planib, soatlarini ochiq havoda o'yinlarda o'tkazishlari mumkin bo'lgan maydonlar bo'lishi kerak, bu yerda ko'chalarni kesib o'tishda ular bolalarga xavf tug'dirmasligi kerak. Bulvarlar bir xil rol o'ynashi mumkin.

Muhokama. Arxitektura-kompozitsiyaviy tashkil etish va rivojlantirish usullariga ko'ra maydon yopiq, yarim yopiq va ochiq maydonlarga bo'linadi. Yopiq maydonlarda atrofidagi binolar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yarim yopiq maydonlarda bir tomonda katta jamoat binolari tashkil etgan bo'ladi. Ochiq maydonlarda kompozitsiyada ko'proq park va bog'lar, suv inshootlari muhim rol o'ynaydi [3].

O'zbekiston shaharlaridagi ma'muriy - jamoa markazlari tarkibiga viloyat, shahar hokimliklari binolari, xo'jalik binolari, g'aznachilik va boshqa boshqarmalarning binolari joylashgan. Bundan tashqari, shahar markazida madaniy-tarbiyaviy ahamiyatdagi binolar (teatrlar, kino zallari, bibliotekalar, klublar,

muzeylar) va savdo majmualari joylashtirilishi mumkin. Katta bo'lmagan aholi yashash punktlarida esa umumshahar ma'muriy markazi sifatida, shahar maydonlaridan biri tanlanishi mumkin.

Xulosa

Samarqand shahridagi maydonlar bu nafaqat shahar estetikasi va transport tizimining elementi, balki tarixiy meros va zamonaviy ijtimoiy hayotning uyg'unlashgan timsolidir. Ularning to'g'ri urbanistik rejalashtirilishi va funksional rivojlantirilishi nafaqat shahar ko'rkiga, balki aholi farovonligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shahar muhitining ochiq me'moriy maydonlari zamonaviy shaharlarning eng muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi. Shaharning individual estetik qiyofasini ochib berish uchun tarixiy va zamonaviy noyob jamoat, turar-joy va sanoat binolariga ega bo'lishi yetarli emas. Ko'cha va maydonlar shahar hayotining haqiqiy sahnasi bo'lib, u yerda turli tadbirlar o'tkaziladi. Shahar qurilishi jarayonida tarixiy maydonlar bilan bir qatorda zamonaviy maydonlar ham paydo bo'di. Ular turli funksional maqsadlarga ega va juda tez-tez bir nechta funksiyalarni birlashtiradi biznes, chakana savdo, dam olish, me'morial va boshqalar. Har qanday maydon makonning barcha kosmik rejalashtirish komponentlari o'rtasida hissiy va estetik munosabatlarni o'rnatadigan va insonga ta'sir qiluvchi ma'lum bir kompozitsion tuzilishga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Архитектурная концепция комплексного благоустройства и перспективного развития площадей. Пояснительная записка к выпускной квалификационной работе ЮУрГУ- 07.04.03.2018.669.ПЗ КП
2. D.U.Isamuhamedova "Shaharsozlik asoslari " I qism. 2009 y.

3. Современные общественные пространства как инструмент развития городской среды. Материалы межрегиональной научно-практической конференции . Санкт-Петербург 2018
4. Б.И.Муталова, К.Д.Абдуллаева. Учебное пособие “Реконструкция города и развитие” ТАСИ 2020

**IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA LANDSHAFT ARXITEKTURASI:
YASHIL HUDUDLARNI LOYIHALASHTIRISHNI MOSLASHTIRISH,
ARXITEKTURADA TABIIY VA SUN’IY MUHITNI MUVOFIQLASHTIRISH**

Ilmiy rahbar: arxitektura fanlari nomzodi, texnika fanlari doktori
professor Raximov K.D.

Mustaqil izlanuvchi: Safarova I.A.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
achilovna100@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada o‘zgaruvchan iqlim sharoitiga landshaft arxitekturasini moslashtirish bilan bog‘liq dolzarb muammo ko‘rib chiqiladi. Iqlim o‘zgarishining shaharlardagi yashil hududlarga ta’siri tahlil qilinadi va landshaftlarning barqarorligi hamda funkcionalligini oshirishga qaratilgan moslashuv strategiyalari taklif etiladi. Alohida e’tibor arxitektura loyihalashtirish kontekstida tabiiy va sun’iy muhitni uyg‘unlashtirish masalasiga qaratilgan.

Аннотация

В статье рассматривается актуальная проблема адаптации ландшафтной архитектуры к изменяющимся климатическим условиям. Анализируется влияние изменения климата на зеленые зоны городов и предлагаются стратегии адаптации для повышения устойчивости и функциональности ландшафтов. Особое внимание уделяется вопросу гармонизации естественной и искусственной среды в контексте архитектурного проектирования.

Abstract

The article considers the urgent problem of adapting landscape architecture to changing climate conditions. The impact of climate change on green areas in cities is analyzed and adaptation strategies are proposed to increase the sustainability and functionality of landscapes. Particular attention is paid to the issue of harmonizing the natural and artificial environment in the context of architectural design.